

BUXORO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI


2025- yil yanvar-avgust oylari uchun dastlabki ma'lumot

- I. Tashqi savdo aylanmasi
- II. Eksport hajmi
- III. Import hajmi
- IV. Metama'lumotlar
- V. Aloqador boshqa havolalar

I. TASHQI SAVDO AYLANMASI

2025- yil yanvar-avgust oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 969,3 mln. AQSH dollariga yetdi va 2024- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 95,3 mln. AQSH dollariga yoki 10,9 % ga ko'paydi.

Tashqi savdo aylanmasi (mln. AQSH dollari)



TSAda eksport hajmi 214,2 mln. AQSH dollariga (2024-yilning yanvar-avgust oyiga nisbatan 9,1 % ga ko'paydi) va import hajmi 755,1 mln. AQSH dollariga (11,4 % ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida – 540,9 mln. AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.

**Buxoro viloyatining yirik hamkor davlatlar
bilan tashqi savdo aylanmasi dinamikasi (mln. AQSH dollari)**

Davlatlar	2023y.	2024y.	2025y.
Rossiya	300,9	218,5	376,6
XXR	129,8	239,1	180,9
Turkmaniston	65,5	57,7	95,3
Afgoniston	36,5	33,8	70,2
Eron	26,8	35,4	44,7
Qozog'iston	53,9	36,7	43,8
Turkiya	49,5	35,4	25,7
BAA	3,4	48,2	18,8
Tojikiston	17,2	6,4	14,5
Germaniya	24,1	22,3	13,5
Qirgiz Respublikasi	16,1	9,5	12,8
Hindiston	8,2	7,4	12,5
Daniya	0,1	0,1	8,3
Pokiston	2,8	3,1	5,4
Belarus	8,4	5,8	5,1
Polsha	10,6	3,9	4,6
Koreya Respublikasi	6,0	3,8	3,2
Litva	12,1	3,7	2,4
Eroq	1,0	0,1	2,3
Ukraina	3,2	1,3	2,2

Buxoro viloyati 83 ta mamlakatlar bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Rossiyada (38,9%), XXR da (18,7%), Turkmanistonda (9,8%) Afg'onistonda (7,2%), va Eronda (4,6%), qayd etilgan.

II. BUXORO VILOYATINING EKSPORTI TARKIBI

2.1- jadval


Tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2024- y.	2025- y.	2024- y.	2025- y.	2024- y.	2025- y.
Jami eksport	196,3	214,1	100,1	109,1	100,0	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	11,9	22,7	137,1	190,1	6,1	10,6
Ichimliklar va tamaki	0,8	1,5	3,3 m.	2,2 m.	0,4	0,7
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	11,0	6,6	67,2	59,8	5,6	3,1
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	48,1	64,2	90,4	133,5	24,5	30,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	2,7	0,1		3,7	1,4	-
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	3,0	3,2	2,2 m.	108,0	1,5	1,5
Sanoat tovarlari	85,2	70,7	107,8	83,0	43,5	33,1
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	12,2	14,4	26,1	118,0	6,2	6,7
Turli xil tayyor buyumlar	8,9	13,6	139,1	157,7	4,4	6,4
Xizmatlar	12,5	17,0	104,3	135,8	6,4	7,9

Mavzugadoirhavola: [Eksport tarkibi \(XSST-2008\) \(oylik\)](#)

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 92,1 % ni tashkil etib, asosiy ulush sanoat tovarlari (33,1 %), mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (30,0 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (10,6 %) va turli xil tayyor buyumlar (6,4 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Buxoro viloyatining yirik eksportyor hamkor davlatlari


(mln.AQSHdollari)



Mavzuga doir havola: [Eksport hajmi \(mamlakatlar kesimida, oylik\)](#)

2025-yil yanvar-avgust oyida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Afg'oniston (32,6 %), Rossiya (31,8 %), Qozog'iston (6,4 %), Tojikiston (5,2 %), Turkmaniston (3,4 %), Qirg'iston (3,1 %), Pokiston (2,4 %), XXR (2,1 %), Germaniya (2,0 %), va Eron (1,6 %), kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 92,0 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar eksporti tarkibi (mln. AQSH doll.)



Mavzuga doir havola : [Xizmatlar eksporti \(xizmatlar turi bo'yicha, oylik\)](#)

Xizmatlar eksporti hajmi 12,9 mln. AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 6,8 % ini tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 3,3 % ga ko'paydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport (10,4 %), safarlar (turizm) (9,4 %), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot (9,1 %) va boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (45,6 %) hissasiga to'g'ri kelgan.

III. BUXORO VILOYATINING IMPORTI

2025-yilning yanvar-avgust oyida import hajmi 755,1 mln. AQSH dollariga yetdi va 2024-yilning mos davriga nisbatan 11,4 % ga ko'paydi. Import tarkibida eng kata ulush, Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (43,6 %), Mashinalar va transport asbob-uskunalar (20,6 %), sanoat tovarlari (12,3 %) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (12,1 %) hisobiga to'g'ri keldi.

Buxoro viloyatining importi tarkibi


3.1- jadval

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2024-y.	2025-y.	2024-y.	2025-y.	2024-y.	2025-y.
Jami import	677,7	755,1	110,9	111,4	100,0	100,0
Oziq-ovqatmahsulotlarivatihayvonlar	10,7	16,7	64,8	156,2	1,6	2,2
Ichimliklarvatamaki	0,4	2,0	497,3	5,5 m.	0,1	0,3
Nooziq-ovqatxomashyo, yoqilg'idantashqari	10,3	24,7	59,0	2,4 m.	1,5	3,3
Mineral yoqilg'i, yog'lashmoylarivashungao'xshashmater iallar	243,5	329,4	83,0	135,3	35,9	43,6
Hayvonvao'simliklarmoylari (yog'lari), yog'larvamumlar	0,9	0,2	119,3	23,9	0,1	-
Kimyoviyvositalarvashungao'xshashma hsulotlar	39,7	91,3	63,4	2,3 m.	5,9	12,1
Sanoattovarlari	86,6	92,9	226,9	107,3	12,8	12,3
Mashinalarva transport asbob- uskunalar	167,0	155,6	131,2	93,2	24,6	20,6
Turlixiltayyorbuyumlar	118,0	42,0	69,3	35,6	17,4	5,6
Boshqatovarlar	-	-	-	-	-	-
Xizmatlar	0,4	0,3	-	66,3	0,1	-

Mavzuga doir havola:[Import tarkibi \(XSST-2008\) \(oylik\)](#)

Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2025-yilning yanvar-avgust oyida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 77,4 mln. AQSH dollariga ko'paydi va 755,1 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 0,3 mln. AQSH dollariga yetdi.

Buxoro viloyatining yirik importyor hamkor davlatlari (mln. AQSH dollari)



2025-yil yanvar-avgust oylarida Buxoro viloyati 73 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yirik hamkor davlatlar Rossiya (40,9 %),XXR (23,3 %), Turkmaniston (11,5 %), Eron (3,8 %), Qozog'iston (3,8 %), Turkiya (3,1 %) va OAA (2,3 %) jami importning 90,2 % ni tashkiletdi.

Mavzuga doir havola:[Xizmatlar importi \(xizmatlar turi bo'yicha, oylik\)](#)



Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (100,0 %), ga tegishli bo'ldi.

IV. METAMA'LUMOTLAR

*Tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (TIF TN) bilan birgalikda, BMTning Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarini XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

Tashqi savdo statistikasi, tovarlar va xizmatlar tashqi savdosi asosida shakllantiriladi: tovarlar tashqi savdosi statistikasini shakllantirishda dastlabki ma'lumotlar bo'lib, Bojxona qo'mitasining bojxona yuk deklaratsiyasining ma'lumotlari hamda Milliy statistika qo'mitasining rezidentdan norezidentga o'tuvchi, davlat chegarasini kesib o'tiyulgan va bojxona deklaratsiyasida hisobga oliniyulgan tovarlarni statistik kuzatuvlari hisoblanadi; tashqi savdo xizmatlar statistikasini shakllantirish statistika kuzatuvlari asosida amalga oshiriladi.

V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR

[Tashqi savdo aylanmasi hajmi \(yillik\)](#)

[Tashqi savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(yillik\)](#)

[Tashqi savdo aylanmasi hajmi \(mamlakatlar kesimida, yillik\)](#)

[Tashqi savdo aylanmasi o'sish sur'ati \(mamlakatlar kesimida, yillik\)](#)

[Eksport hajmi \(hudular kesimida, yillik\)](#)

[Eksport hajmi \(mamlakatlar kesimida, oylik\)](#)

[Import hajmi \(yillik\)](#)

[Importning o'sish sur'ati \(yillik\)](#)

[Importning o'sish sur'ati \(yillik\)](#)

Chop etishga masul: Xizmatlar va savdo statistikasi bo'limi	Boshqarma boshlig'i: U.Djumanazarov Tel: +998655058000 (8000)	Ijrochi: Z. Saidova Tel: +998655058000 (8040) e-pochta : info@buxstat.uz buxstat@exat.uz	Manzil: 100170, Buxoro sh., S.Ayni ko'chasi, 3
---	--	---	--